



Principles of expressing the artistic landscape of the world through plant imagery

Nafosat UROKOVA¹

Bukhara State University

ARTICLE INFO

Article history:

Received August 2024

Received in revised form

10 September 2024

Accepted 25 September 2024

Available online

25 October 2024

Keywords:

new Uzbek poetry,
floristic images,
image,
plant images,
symbol,
landscape lyrics,
cotton,
wheat,
thorn.

ABSTRACT

It is well known that the genesis of floristic imagery in artistic creation dates back to ancient times. In modern Uzbek poetry, the tradition of engaging with the world of flora and depicting the landscapes of new life through these images has continued. Images of plants, trees, and flowers, beyond their literal meanings, have served as symbols to express various cultural values. Through them, aspects of people's lives, character traits, dreams, thoughts, emotions, and the state of society are conveyed. Consequently, this symbolic process manifests in diverse forms across different artists. This article examines the poetics of expressing the artistic landscape of the world through plant imagery. Comparative-historical, comparative-typological, linguistic, and analytical methods of analysis were applied to explore the artistic and poetic roles of plant imagery in contemporary Uzbek poetry. The study highlights the artistic significance of plant images actively used in modern Uzbek poetry. Through examples from the works of several poets, attention is drawn to the symbolic content they express. Additionally, it is noted that the understanding of the floristic world has evolved, with plant imagery now being actively incorporated into its artistic representation

2181-3701/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol2-iss4/S-pp12-18>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

¹ Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Bukhara State University.
E-mail: n.y.urokova@buxdu.uz

Olamning badiiy manzarasini o'simlik obrazlari orqali ifodalash tamoyillari

Kalit so'zlar:

yangi o'zbek she'riyati,
floristik obrazlar,
obraz,
o'simlik obrazlari,
ramz,
peyzaj lirikasi,
paxta,
bug'doy,
tikan.

ANNOTATSIYA

Ma'lumki, badiiy ijodda floristik obrazlar genezisi juda qadim zamonlarga borib taqaladi. Yangi o'zbek she'riyatida ham flora olamiga qiziqish, yangi hayot manzarasini ushbu obrazlar orqali tasvirlash an'anasi davom etdi. O'simlik, daraxt, gul obrazlari o'z ma'nosidan tashqari turli ramziy-timsoliy ma'nolarni ham ifodalashga xizmat qildi. Ular orqali insonlarning yashash tarzi, xarakter-xususiyatlari, orzu-armonlari, fikr-kechinmalari hamda jamiyatning ahvoli gavdalanirildi. Binobarin, bu jarayon turli ijodkorlarda turli shakllarda bo'y ko'rsatdi. Mazkur maqolada olamning badiiy manzarasini o'simlik obrazlari orqali ifodalash poetikasi o'rganilgan. Yangi o'zbek she'riyatida o'simlik obrazlarining badiiyati va poetikasi masalasini tadqiq qilishda qiyosiy-tarixiy, qiyosiy-tipologik, lingvistik, analitik tahlil usullaridan foydalanilgan. Natijada, yangi o'zbek she'riyatida faol qo'llangan o'simlik obrazlarining badiiy ahamiyati yoritilgan. Qator ijodkorlarning she'rlari misolida ular ifodalagan ramziy-timsoliy mazmun-mohiyatga diqqat qaratilgan. Qolaversa, floristik olamni anglash tarzi o'zgarganligi, uni badiiy ifodalashda o'simlik obrazlaridan ham faol foydalanish yo'liga o'tilganligi asoslangan.

Принципы выражения художественного пейзажа мира через образы растений

Ключевые слова:

новая узбекская поэзия,
флористические образы,
образ,
образы растений,
символ,
пейзажная лирика,
хлопок,
пшеница,
колючка.

АННОТАЦИЯ

Известно, что истоки использования флористических образов в художественном творчестве уходят в глубокую древность. В новой узбекской поэзии продолжилась традиция интереса к миру флоры и отражения пейзажей новой жизни через эти образы. Изображения растений, деревьев и цветов не только имели собственное значение, но и использовались для передачи различных символических смыслов. Через них передавались образ жизни людей, черты характера, мечты, мысли и переживания, а также состояние общества. Этот процесс у разных поэтов проявлялся по-разному. В данной статье исследуется поэтика выражения художественного ландшафта через растительные образы. В исследовании художественности и поэтики флористических образов в новоузбекской поэзии использовались сравнительно-исторический, сравнительно-типологический, лингвистический и аналитический методы анализа. В результате подчеркивается художественная значимость образов растений, активно используемых в новой узбекской поэзии. На примере стихотворений различных авторов акцентируется внимание на их

символическом содержании. Кроме того, отмечается, что изменился способ восприятия флористического мира, и растительные образы стали активно использоваться в его художественном осмыслении.

KIRISH

Olamning badiiy manzarasini floristik obrazlar vositasida ifodalash yo'sinida mumtoz lirikamiz an'alariga sodiqlik bir qadar saqlanib qoldi. Buni, xususan, H.Olimjon, E.Vohidov, J.Kamol g'azallari misolida dalillash mumkin. Ularning ijodida janr, obraz, she'riy san'atlar va poetik tasvir usuli masalalarida mumtoz she'riyat an'analari davom ettirildi. Bundan farqli o'laroq, yangi o'zbek adabiyotida yaratilgan mumtoz janrga oid ko'plab lirik asarlarda shartli-romantik obrazlar emas, hayotiy konkretlikka ega realistik obrazlar gavdalantirilganini ham ta'kidlash zarur.

Yangi o'zbek she'riyatida olamning badiiy manzarasini floristik obrazlarda ifodalash tarzi ikki bosqichga bo'lib o'rganildi: 1. Mustamlaka (1900-1990) yillari o'zbek lirikasida floristik obrazlar poetikasi. 2. Istiqloldan keyingi (1991) yillar o'zbek she'riyatida floristik obrazlar talqini. Mumtoz she'riyatimizda an'anaviy tarzda bir xil ma'no ifodalagan bir qancha floristik obrazlar mustamlaka davri adabiyotida yangi ohang va mazmun kasb etdi. Ular mumtoz lirikada gavdalantirgan mazmun-mohiyat o'rnini endi hurlik, ozodlik tushunchalari, ramziy ifodalari egalladi. Bunday o'rin almashish mustaqillik davri adabiyotiga qadar davom etdi.

ASOSIY QISM

Bu davrning mavjud tuzumi ta'siri natijasida ijtimoiy mazmun markazga chiqqan zamonasoz she'rlar ham dunyo yuzini ko'rdi. G'o'za (paxta), bug'doy kabilarning davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan davri yoki qo'riq yerlarni o'zlashtirish bilan bog'liq jarayonlar adabiy muhitni o'ziga bo'ysundirdi. Zero, G'.G'ulom, H.Olimjon, Zulfiya, Mirtemir kabi ko'plab shoirllar o'sha davr mafkurasiga ishonch ortidan uning girdobida ijod qildilar.

Lirik turda olamning badiiy manzarasini ifodalash obrazning turli ko'rinishlari vositasida amalga oshiriladi. Shulardan eng faol qo'llanib kelingan obrazlar – bu flora olamiga tegishlidir. Badiiy ijodda floristik obrazlar genezisi juda qadim zamonlarga borib taqaladi. Inson jamiyat, tabiat va koinot bilan bir butunlikda mavjuddir. Shu nuqtayi nazardan uni tabiat va borliq obyektlari, hodisalari ichida yondosh holatda tasvirlash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Yangi o'zbek she'riyatida olamning badiiy manzarasini o'simlik obrazlari vositasida tasvir etish yetakchi xususiyat kasb etgan. Ular orqali lirik qahramon ruhiy olami, xarakter-xususiyatlari, orzu-armonlari, fikr-kechinmalari ramziy-timsoliy tarzda ifoda etilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Hamid Olimjonning ijtimoiy lirikasida floristik obrazlar ko'plab yaratilgan. Buni "Farg'ona she'rlaridan" turkumi doirasida yuqori pafos bilan yozilgan "Baxtlar vodiysi" she'ri ham asoslab turadi. Unda mehnatkash o'zbek millatining portreti yorqin gavdalangan:

Mehnat – sharaf, baxt bo'lgan
vodiylar
ko'm-ko'k...
G'o'za guli bilan

qalblari o'sgan,
G'o'za yaprog'i-la
qalbi ko'kargan
vodiylar
ko'm-ko'k... [1, 153]

She'rdi yillar davomida millatimizning ramzi sifatida qaralgan go'za obrazi gavalantirilgan. Xuddi mana shu o'rinlarda shoirning zamonasozlikka yo'l qo'yg'anligini ham aytish kerak bo'ladi. Bunda g'o'zaning guli-yu yaprog'igacha ilohiylashtirish ko'rinadi. Umuman olganda, she'rdi kishiga hayot va go'zallik baxsh etuvchi tabiatning butun salobati quyma satrlar orqali zo'r ehtiros bilan tasvirlangan.

Abdulla Oripovning "O'zbekning paxtasi" she'ri 1981-yil yozilgan. Bunda davr siyosati o'z ta'sirini o'tkazganligini ko'rish mumkin:

Million yillik so'z erur
Paxta bizning lug'atda,
Jo'yaklarda boshlangan
Onalar to'lg'oq dardi.
Mabodo o'simlikka
Zabon bitsa, albatta,
Paxta navi eng avval
O'zbekcha gapirardi [4, 44].

Misralarda ham xalqning dardini, ham biroz yumorni his qilish mumkin. Paxta davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan yillar mehnatkash xalqimiz uchun juda og'ir davr bo'lgan. Bu jarayon tugamaydigandek, qishin-yozin, kecha-yu kunduz, yomg'ir-u qorda ham davom etgan. Yerga g'o'za urug'i – chigitni qadashdan boshlab, uni parvarishlash, paxta terishgacha bo'lgan barcha ishlarga yosh-u qari, erkak-u ayol birdek jalb qilingan. Bu holat she'rning "Paxta bizning lug'atda million yillik so'z erur" satrini dalillaydi. Haqiqatda, paxta bilan bog'liq mehnat jarayonida "javlon urayotgan" homilador o'zbek onasini egatlarda to'lg'oq tutib, ko'zi yoriganini tarix sahifalari tasdiqlaydi. Bu haqda badiiy asarlarda o'qiganimiz yoki buvijonlardan tinglaganimiz ham afsona emas. "Paxta navining eng avval o'zbekcha gapirishi" esa o'zbek mehnatkashi va paxtaning bir tan-u bir jondek birlashib ketganligi natijasida yuzaga kelgan.

Yoki:
Paxtam deb kuylasam seni qay zamon,
Yog'ildi sha'nimga hatto malomat.
Emishki, yo'q senda ilhomdan nishon,
Yo'qdir go'zallikdan senda alomat.
Seni rizqim dedi mushtipar onam,
Demakki, rizqimsan azaldan-azal.
Toki shu tuproqda ekan nasibam,
Hatto yantog'iga yozurman g'azal [3, 39].

deya kuylangan "Paxta" she'rida A.Oripov ona tuprog'ining har bir zarrasi, hatto tikani qatorida paxtasini ham sevishini, unga azaliy muhabbati borligini tan oladi. Paxtaning ilhom bag'ishlovchi go'zalligi bo'lmasa-da, shoir unda o'ziga rom qiluvchi sehrni, mehr bulog'ini ko'ra oladi. Qolaversa, paxta o'zbek xalqining, o'zbek mushtipar onasining rizq-ro'zi hisoblangan. Shuning hurmati haqqi uchun shoir unga hamisha bosh egib ta'zim qilishga tayyor ekanligini bildiradi.

Shavkat Rahmonning bir she'rida ham o'tgan asrimizning og'riqli nuqtalaridan biri g'o'za o'simligi haqida gap boradi:

Nahot bu o'sha yer,
shumi har lahza
ming bitta tuyg'uni o'ynatgan go'sha,
bor tig'in milliard nish bilan chaqar
bahaybat zangori chayonday g'o'za [9, 197].

O'zbekning turmush tarzida paxta yakkahokimligi kechagina paydo bo'lib qolgan tushuncha emas. U yuz yilliklar davomida o'zining rivojlanish bosqichini o'tab kelgan. Bu hodisaning tarixi uzoq yillarga borib taqaladi. XIX asrning 60-yillari oxirida boshlangan mustamlaka siyosati XX asrning 90-yillari boshida tugallandi. Rossiya va uning jadal rivojlangan sanoat sohalari arzon xom-ashyo bilan ta'minlab kelgan davlatlar orasida, ming afsuski, O'zbekiston ham bor edi. Yangi yerlar o'zlashtirish hamda g'alla va boshqa ekinlarni qisqartirish hisobiga paxta ekiladigan maydonlarning tez sur'atlar bilan kengaytirilgani paxta siyosatining qattiq nazorat ostiga olinganini ko'rsatadi. O'rta Osiyo xalqlari qatori yurtimizning har bir fuqarosi – yosh-u qarisi mana shu azobli girdobning ichida to'lg'andi. Sh.Rahmonning mazkur she'ri o'sha olovli yillarning chandiqlaridan so'zlaydi. Shoir “ko'hna torlarning qayg'usi”ni anglagan holda “azaldan bu yerning xo'jasi bormi, vallamat erlari qaysi go'rdaydi” deya yurt o'g'lonlaridan qattiq yozg'iradi. Binobarin, xalqimiz qiyofasidan Rossiyaga paxta yetkazib berish qiynoqlarining izlari hamon o'chgan emas.

Zulfiyaning “Sadoqat” nomli she'rida yangi hayot zavqi yorqin bo'yoqlarda kuylangan:

Bug'doylarning mavjin tush ko'rib,
Uxlab yotgan yerlar chorlaydi.
Men boraman, istiqbolimda,
Yangi baxt-u sevgi porlaydi [8, 185].

Bunda mohirona bir uslub ko'zga tashlanadi. Ya'ni shoira davrning mafkuraviy g'oyasi va o'zining sof badiiy qarashlarini bir yerda yig'a olgan, birini ikkinchisining bag'riga singdira olgan. She'rda lirik qahramon – shoiraning o'zi. XX asrning 50-yillaridan avj olgan bo'z yerlarni o'zlashtirish siyosati XX asrning 20-30 yillarida amalga oshirilgan qo'riq yerlarni o'zlashtirish jarayonining uzviy davomi bo'ldi. Ming mashaqqat bilan suv chiqarilib, o'zlashtirilgan yerlarning katta qismiga g'o'za ekilgan bo'lsa, qolgan qismi bug'doyzorlarga aylangan. Mazkur bosqichda qo'riq yerlarni o'zlashtirish, asosan, yoshlarning zimmasiga tushgan. Shunday ko'ngillilar safida shoiraning turmush o'rtog'i Hamid Olimjon ham ishtirok etgan. Ularning vazifasi bo'z yerlarni o'zlashtirishda qatnashayotgan yoshlarni mehnat sharaflangan she'rlari, Vatan tuyg'usiga yo'g'rilgan samimiy nutqlari bilan ruhlantirishdan iborat bo'lgan.

Usmon Nosir ijodi soddaligi, o'ynoqiligi, diltortarliligi bilan ajralib turadi. Uning “Yuksal, oppog'im” nomli she'ri xalqchilligi bilan e'tiborni tortadi. U lirik qahramonning yaqini – tanish qiz bolaga bag'ishlangan bo'lib, saboq olish maqsadida kursga qatnashi, o'qish-o'zgarishga bo'lgan intilishi qadrlanadi. Qizni bir paytlar yoshligida ko'rgan shoir uni ulg'ayganda ham ko'rib, ko'zlari quvonadi:

Ranglaringga rang qo'shilibdi,
Bug'doy kabi yashnaydi yuzing.
Charos kabi qop-qora ko'zing,

Ko'zlaringga oy berkinibdi [7, 38].

Darhaqiqat, bunda balog'atga yetgan, ulg'aygan qiz portreti gavdalangan. Yuzining qizg'ish-qo'ng'ir rangi bug'doyga, ko'zlarining qop-qoraligi charosga qiyoslangan. Odatda, ahamiyat beradigan bo'lsak, qishloq qizlarining yuzida bug'doyrangga moyillik seziladi. Chunki ularning tanlari mehnat tufayli oftob nurlarida obdon toblangan bo'ladi. Mana shu o'xshashlik va o'zaro ichki aloqani his qilgan U.Nosir uni she'rga solgan. Bu orqali biz shoirning hamisha el bilan hamnafaslikda ijod qilganligiga yana bir karra amin bo'lamiz.

O'zbekiston Qahramoni, xalq shoiri A.Oripov ijodining o'ziga xos xususiyatlaridan biri – peyzaj lirikasining lirik qahramon ruhiyatiga uyg'un bitilganligida ko'rinadi. Uning, nafaqat, maxsus she'rlarida, balki, umuman, butun ijodida tabiatga – nabotot olamiga ayricha munosabat bildirganligi kitobxonlarga yaxshi tanish. Shoirning flora olamini obrazlantirish, unga ramziy mazmun berish nuqtayi nazaridan nihoyatda yuksak pafos bilan yondashganligi yaqqol sezilib turadi.

A.Oripov o'z ijodida dunyoni anglash, borliq sinoatlarini tushunish va olamning badiiy manzarasini ifodalash usullariga turlicha yondashadi. Shular qatorida falsafiy qarashlar keng o'rin egallaydi. Jumladan, "Yantoq va tuya" she'ri insonlarga saboq bo'larli g'oyalar bilan sug'orilgan:

Yantoqning tomiri uzoqqa ketar,
Bardoshda tengsizdir yantoqxo'r tuya.
Unisin odamlar tikan deb atar,
Bunisin kamsitar tuyasan, deya [5, 4].

She'rda yantoq va uning iste'molchisi yantoqxo'r tuya bosh obraz bo'lib kelgan. Lirik qahramon ijtimoiy-maishiy hayotda kuzatganlaridan kelib chiqqan holda qisqa xulosaga keladi. Yantoq bilan tuya – sabr va kamtarlik, faqirlik ramzi. Chunki yantoq suvsiz cho'llarda o'sadi. Shunday bo'lsa ham ildizi yerga chuqur kiradi. Tuya esa sahro va cho'llarda yashaydi. Uzoq muddat suvsizlikka bardosh bera oladi. Ular mana shu xususiyatlari tufayli hurlikka, ozod nafasga erishdi. She'rda yantoq va tuyaga qarama-qarshi o'laroq gul va ohu obrazlari keltirilgan. Bu ikkalasi o'zini ko'z-ko'z qilganligi bois, gulni qayergadir qadab qo'yдилar, ohuni esa qafasga soldilar. Darhaqiqat, she'rda hayotiy tajribalarga asoslangan xulosalar o'z aksini topgan.

Usmon Azim ijodida yantoq va gul obrazlariga xos an'anaviylik saqlanib qolgan. Uning "Chapani yoxud jaydari she'rlar" turkumiga kiruvchi to'qqiz qismdan iborat she'rlar jamlanmasi xalqona ohanglarda bitilgan. Uning sakkizinchi qismida yantoq obrazi qo'llangan. Har misra ostida "Chamanyoringman" so'zi naqorat tarzida kelgan bo'lib, ta'kidni kuchaytirishga hissa qo'shgan:

Yantoqlarga ko'z tikib
Chamanyoringman,
Gulni yarolab ketma,
Chamanyoringman [6, 335].

Bunda yantoq gulning ziddi bo'lib, dushman, raqib ramziy ma'nolarini ifodalagan. Lirik qahramon o'z yoridan najot tilaydi: tikanni deb, yonidagi gul bag'rini yarolab ketmaslikni o'tinadi. Gul – lirik qahramonning o'zi. Ko'rinadiki, she'rda sadoqat tuyg'usi ulug'langan. Gulning "sahrodan ham sarg'aygan"ligidan bilish mumkinki, uning oshig'i raqib tomon ketgan. Gul esa chaman ichida alam bilan o'rtanib qolgan. O'z bog'iga, sevimli guliga xiyonat qilmaslik haqidagi falsafiy xulosalar poetik tarzda, xalqona bir uslubda she'rga singdirilgan. Bunda yantoq obrazining ham alohida o'rni bor.

M.Yusufning “Inshoolloh” nomli she’ri yurtimiz mustaqillikka erishgan ilk yillarning mahsulidir. She’r istiqloлга shukronalik g’oyalari bilan yo’g’rilgan. Duo, niyat ko’rinishida bitilgan. Unda olis tarixga nazar tashlanib, Alpomish va Amir Temur nomlari tilga olingan. O’zbek millatining qadimligi, milliy ramzlariga urg’u berilgan. She’rda o’simliklardan yantoq nomi qo’llangan bo’lib, obraz darajasiga ko’tarila olgan:

Totuv yurtda yantoq o’zin tog’ aylagay,
Bir-birini qo’llagan el kam bo’lmagay,
Bolalari Turkistonni bog’ aylagay,
Abad yashnar, xazon bilmas endi bu bog’,
Inshooloh! [2, 185]

Bunda birdamlik, totuvlik g’oyalari ulug’langan. Bog’ – yurt ramzi, yantoq esa uning bir parchasi – yurt farzandlaridir. She’rda tinchlik hukm surgan yurtni, birlashgan millatni hech kim yengolmasligi, ajdodlarga munosib avlod bo’lishga intilish lozimligi g’oyasi ilgari surilgan. Odatda, o’zining ko’rimsizligi, e’tibordan chetdaligi, tikanaklari borligi tufayli yantoq obrazi ko’pincha bir chetda, g’aribgina, kamtargina bo’lib turgandek tuyuladi. Demak, shoir nazdida, o’zini mana shunday faqir sanagan yurt farzandlari ham tinch yurtda, farovon elda yayrab-yashnaydi. Shu tinchlikni, erk va hurlikni saqlab qolish esa yurt o’g’lonlarining sharaflı burchidir.

XULOSA

Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, olamning badiiy manzarasini floristik obrazlar, xususan, o’simliklar orqali badiiy aks ettiriш yangi o’zbek she’riyatida naфақat пейзаж яратиш, balki ижтимоий фикрни беришда муҳим аhamiyat kasb etdi. Bunda obrazga ramziy ma’no-mazmun yuklash darajasi oshdi. Binobarin, floristik olamni anglash tarzi o’zgarganligi, uni badiiy ifodalashda o’simlik obrazlaridan ham faol foydalanish yo’liga o’tilganligi diqqatga sazovordir.

Umuman olganda, so’nggi yillarda ijodkorlar olamning badiiy manzarasi ifodasiga yangicha rakursda yondashmoqda. Bu hodisa yangi o’zbek she’riyatida yorqin ko’zga tashlandi. Shoirларning ona tabiatga – flora olamiga munosabati tubdan o’zgarganligi diqqatga molik masalalardandir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Ҳамид Олимжон. Мукаммал асарлар тўплами. Ўн томлик. Биринчи том. Шеърлар. – Т.: Фан, 1979. – 402 б.
2. Муҳаммад Юсуф. Сайланма: Шеърлар. Достонлар. Шоир ҳақида хотиралар. – Т.: Шарқ, 2007. – 368 б.
3. Орипов А. Менга хушхабар айт. Шеърлар. – Т.: Маънавият, 2009. – 128 б.
4. Орипов А. Бедорлик. Шеърлар. – Т.: Ёзувчи, 1999. – 96 б.
5. Орипов А. Танланган асарлар. Еттинчи жилд. Шеърлар, достон, мақолалар, суҳбатлар, қайдлар. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2013. – 300 б.
6. Усмон Азим. Сайланма. Шеърлар. – Т.: Шарқ, 1995. – 432 б.
7. Usmon Nosir. She’rlar, doston va tarjimalar/nashrga tayyorlovchi va so’zboshi muallifi Nodira Rashidova. – Т.: Zabarjad Media, 2022. – 114 б.
8. Зулфия. Асарлар. Икки томлик. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1974. – 320 б.
9. Шавкат Раҳмон. Сайланма. – Т.: Шарқ, 1997. – 216 б.